

MALAKA OSHIRISHDAGI O'QITUVCHILARNING KASBIY KOMPETENTLIK MEZONLARINI TARBIYALASHDA MA'NAVIY MEROSDAN FOYDALANISHNING O'RNI, AHAMIYATI, SHAKL VA USULLARI

S.N. saidmuradova

Kalit so'zlar: *ma'naviy meros, o'lkashunoslik, muzey pedagogikasi, sayyohat, ekskursiya, ta'limiy, tarbiyaviy, rivojlantiruvchi ijtimoiylashtiruvchi funksiyalar, aqliy faollik.*

Annotasiya. *Ushbu maqolada malaka oshirishdagi o'qituvchilarning kasbiy kompetentlik mezonlarini tarbiyalashda ma'naviy merosdan foydalanishning ahamiyati, o'rni, shakl va usullari hamda vositalari o'qituvchilar bilan malaka oshirish kurslarida o'tkaziladigan tadbirlar, ularning o'qituvchi kasbiy sifatlarini tarbiyalashdagi pedagogik ahamiyati va o'rni haqida fikr yuritilgan.*

Klyuchevyye slova: *duxovnoye naslediye, krayevedeniye, muzeynaya pedagogika, puteshestviya, ekskursii, vospitatelnaya, pedagogicheskaya, razvivayuyaya sotsializiruyuyaya funksii, myslitel'naya deyatelnost.*

Annotasiya. *V dannoy statye rassmatrivayetsya vajnost ispolzovaniya duxovnogo naslediya v vospitanii kriteriyev professionalnoy kompetentnosti uchiteley v povыshenii kvalifikatsii, rol, formy, metody i sredstva meropriyatii provodimyye na kursax povыsheniya kvalifikatsii uchiteley, ix pedagogicheskoye znachenie i rol v vospitanii uchiteley.*

Keywords: *spiritual heritage, locallore, museum pedagogy, travel, excursions, educational, pedagogical, developmental socializing functions, mental activity.*

Annotation. *This article discusses the importance of the use of spiritual heritage in the development to criteria of professional competence of teachers in professional development, the role, form and methods and means of training courses for teachers, their pedagogical significance and role in educating teachers.*

Ma'naviy meros– ma'naviy taraqqiyot mahsuli, inson aql-zakovati bilan yaratilgan, kelajak avlodni ezgu taraqqiyot sari yetaklash xususiyatiga ega bo'lgan, kishilarning ongi va dunyoqarashining o'sishi, olamni bilish va o'zlashtirish borasidagi sa'y-harakatlariga kuch-quvvat beradigan ajdodlardan avlodlarga o'tib kelayotgan azaliy qadriyatlar majmuini ifodalaydi. O'qituvchi shaxsida xalqimizning haqiqiy ma'anaviy merosi bo'lmish imon, insof, mehr-oqibat, andisha, or-nomus, kattaga hurmat, kichikka izzat, yurtga va xalqqa sadoqat, vatanparvarlik kabi fazilatlarini ham tarbiyalash muhim ahamiyat kasb etadi.

Malaka oshirishdagi o'qituvchilarning kasbiy kompetentligi mezonlarini tarbiyalashda ma'naviy merosdan foydalanish shakli va usullarini quyidagi faoliyat yo'nalishlarida qo'llash mumkin:

1. O'lkashunoslik (jamoatchilik faoliyati va qo'shimcha ta'lim sifatida);
2. Muzey pedagogikasi;
3. Sayyohat va ekskursiyalarni tashkil etish;
4. Yurtimizning buyuk allomalari asarlarini o'rgangan holda, ma'anaviy-ma'rifiy tadbirlarni tashkil etish va o'tkazish;

Quyida malaka oshirishdagi o'qituvchilarning kasbiy kompetentligi mezonlarini tarbiyalashda ma'naviy merosdan foydalanishning quyidagi shakl va usullaridan foydalanildi:

1. *O'lkashunoslik* (jamoatchilik faoliyati va qo'shimcha ta'lim sifatida); - o'qituvchining ona yurtiga, tug'ilib o'sgan joyiga bo'lgan sadoqati, mehr va muxabbatini tarbiyalashda samarali vositalardan xisoblanadi. Bundan tashqari ekskursiyalarni tashkil etishning maxsus metodikalari hamda tarixiy –o'lkashunosli tadqiqotlari shaxsning aqliy dunyoqarashi kengayishiga hamda amaliy xususiyatga ega bo'lgan turli malakalarni o'rganish imkonini beradi. Ma'naviy va tarixiy o'lkashunoslik ona vatanni, shaxsning o'zi yashayotgan mahalliy hududini (shahar, tuman, qishloq, ovul) kompleks holda keng o'rganish bilan bevosita bog'liq bo'lib, shaxsda o'tmish va kelajakni chuqur o'rganishga, jamiyatning madaniy rivojlanishini umumiylikda anglashga istiqbollikni yaratadi. joylardagi ma'anaviy, tarixiy-madaniy va tabiiy meros obyektlari o'zida ko'rgazmali o'lkashunoslik materiallarini mujassamlashtiradi hamda o'qituvchilarni jamiyat rivojining xususiyatlari bilan tanishtiradi. O'zia istiqomat qilayotgan hudud (shahar, tuman, qishloq, ovul, mahalla)ning tarixini o'rganmay turib, o'qituvchilarda ayoniqsa yosh o'qituvchilarda aniq bir axloqiy yo'nalishlar tarbiyalanmaydi hamda unda tug'ilib o'sgan hududida ishlash istagini uyg'otmaydi. Ma'naviy va tarixiy merosdan o'lkachilik material sifatida foydalanish shaxsda emosionallikni uyg'otib, ta'lim va tarbiya jarayoniga ko'proq konkretlashtirishni beradi. Bunday jarayonlarda o'qituvchilar ijodiy fikrlashining emosional stimuli yuzaga keladi. Shu munosabatda V.A.Suxomlinskiy ta'lim jarayonida ta'lim subyektlarining atrof-olam haqidagi bilishga oid jarayonlarini faollashtirish shakllarini kuchaytirishni zarur deb bilgan. Bunday faoliyatning asosini o'lkashunoslik sayrlari, tug'ilib o'sgan hududi, kichik vatanining ma'naviy va madaniy-tarixiy meroslari obyektiga ekskursiyalartashkil etadi. O'qituvchilarni ma'naviy va madaniy-tarixiy meros obyektlariga tashrifini tashkillashtirish ularda vatanparvarlik xisini orttirib, tarixiy-madaniy dunyoqarashini kengaytiradi. Ma'anaviy hamda madaniy-tarixiy meros obyektlarini tarbiya vositasi sifatida foydalanish o'zida bilishga oid, tarbiyaviy, ta'limiy va rivojlantiruvchi funksiyalarni mujassamlashtiradi. Ma'naviy va madaniy-tarixiy meroslardan o'lkachilik material sifatida foydalanish o'qituvchilarda quyidagi xususiyatlarni tarbiyalaydi:

- ma'anaviy va tarixiy merosdan foydalanish o'qituvchilarning aqliy faolligini oshiradi;
- meros obyektlari borliqni obrazli qabul qilishga undaydi, shuning uchun ham tarixiy o'lkashunoslik o'qituvchilarda ilmiy dunyoqarashni, e'tiqodni hamda ularni amaliyotda qo'llash ko'nikma va malakalarini tarbiyalaydi;
- ma'naviy hamda tarixiy meros obyektlaridan tarixiy o'lkashunoslikni o'zlashtirish maqsadida foydalanish o'qituvchilarning dunyoqarashi kengayishida hamda tadqiqochilik faoliyati texnologiyalariga ega bo'lishni ta'minlaydi.

2. *Muzey pedagogikasi*. Muzey faoliyatining madaniy-ta'limiy hamda muzey-pedagogik faoliyat yo'nalishlarini o'rganishda muzey pedagogikasining quyidagi funksiyalari aniqlangan (M.Ye.Kaulen, A.A.Ostapes, A.Ye.Seyneyskiy, B.A.Stolyarov, T.Yu.Yureneva):

Ta'limiy – o'qituvchilarda muzey muhiti sharoitida subyekt va predmetlar bilan muloqot qilish jarayonida tushunchalar tizimini shakllantirish, o'z hududi va o'lkasi to'g'risida bilmagan va xali o'rganmagan ma'lumotlarga ega bo'lishi, dunyoqarashining kengayishi, o'qituvchilarda ta'lim jarayonida ijobiy motivasiyani yaratish;

Tarbiyaviy–o'qituvchilarda, ayniqsa yosh mutaxassislarda vatanparvarlik, ma'naviy va madaniy meros obyektlariga qadriyatli munosabat, o'zining va boshqa xalqlarning tarixiga va madaniyatiga bo'lgan hurmatni tarbiyalash;

Rivojlantiruvchi – o'qituvchilarda ma'naviy yodgorliklar va madaniy meroslar bilan muloqot jarayonida dastlabki manbalarda ma'lumotlarni mustaqil qidirish; ijodiy tafakkurni, mantiqiy fikrlashni, mustaqil ishlash malakalarini tarbiyalash;

Ijtimoiylashtiruvchi–orttirilgan ijtimoiy-madaniy tajribani o'zining kasbiy axloqiy ustanovkalari va qadriyatli yo'nalishlarida o'zgartirish.

Muzey pedagogikasi asosida o'qituvchilarda adolatparvarlik va vatanparvarlik sifatlarini tarbiyalashning shakl va usullari quyidagilar:

Mashg'ulotlardan tashqari mavzuga oid darslarni tashkillashtirish, shu qatorda o'qituvchi kasbiy kompetentligining umumadaniy mezonini tarbiyalaydigan tarixiy yo'nalishdagi mavzularni o'tkazish;

Musiqiy, tasviriy san'at va adabiyotga oid festivallarni o'tkazish;

O'z o'lkasining (hududining) madaniy meros manbalari, obidalarini qo'riqlash va himoya qilish faoliyatida ishtirok etish;

Maktab muzeylarini yaratishda faol ishtirok etish;

Malaka oshirishdagi o'qituvchilarning kasbiy kompetentlik mezonlarini tarbiyalashda o'lkashunoslik, tarixiy, madaniy muzeylarga ekskursiyalar tashkil etish ham muzey pedagogikasining yetakchi shakllaridan xisoblanadi. Bunday muzeylarga tashrif davomida o'qituvchilarda ilmiy, ilim-o'quv, ma'rifiy, umummadaniy va bilishga oid sifatlari tarbiyalanadi. Shu tarzda malaka oshirishdagi o'qituvchilarning kasbiy kompetentlik mezonlarini tarbiyalashda ma'naviy meroslardan foydalanishning shakllaridan biri bo'lgan muzey pedagogikasining vazifasi xalqimizning madaniy tajribasini ma'rifiy va tarbiyaviy jarayonlar orqali uzatishda ularda faol, vatanparvar, tarbiyali va o'qimishli shaxsni shakllantirishdir.

3.Sayyohat va ekskursiyalarni tashkil etish. Yurtimizning turli hududlaridagi tarixiy-madaniy yodgorliklar va obidalarga uyushtiriladigan sayyohatlar insonning vatanparvarlik, sodiqlik, o'z yurti va ajdodlari bilan faxrlanish, iftixor kabi tuyg'ularni tarbiyalash bilan bir qatorda ularda dunyoqarashning kengayishi, ilmiy-tadqiqotchilik faoliyatining tarbiyalanishi hamda emosionallik kabi kasbiy sifatlari tarbiyalanishida ham muhim ahamiyat kasb etadi. Yurtimizning tarixiy shaharlari xisoblangan Samarqand shahridagi Shohi Zinda, Imom al-Buxoriy, Xoja Doniyor majmualari, Buxorodagi Labihovuz, Kalon masjidi, Chor Bakr, Ark me'moriy yodgorliklari, Shahrisabzdagi Ko'kgumbaz, Dor us-siyodat, Oqsaroy obidalar turkumi, Marg'ilondagi Piri Siddiq, Said Ahmad meros obe'ktlari, Xivadagi Ichon qal'a shahristoni nodir yodgorliklari, Toshkentdagi Xasti Imom me'moriy inshootlari, Termizdagi termiziylar qadamjolari, shuningdek, ulug' ajdodlarimiz Yusuf Hamadoniy, Sulton Uvays Qoraniy, Iso at-Termiziy, Mahdumi A'zam, Abu Xafs Kabir kabi allomalarimiz nomlari bilan ataladigan muqaddas ziyoratgohlar, Ulug' mutafakkirlarimiz Muhammad Muso al-Xorazmiy, Ahmad Farg'oniy, Abu Ali ibn Sino, Mirzo Ulug'bek, Alisher Navoiy haykallari, Abu Mansur Moturudiy, Burxoniddin Marg'inoniy, Imom al-Buxoriy, Abulholiq G'ijduvoniy, Bahouddin Naqshbandiy, Pahlavon Mahmud maqbaralarining va muqaddas qadamjolarini ziyorat qilish o'zida ma'naviy-ma'rifiy, madaniy tarbiya shakllarini aks ettiradi.

Yurtimizdagi bunday tarixiy va madaniy yodgorliklar, obidalar, buyuk ajdodlarimiz ziyoratgohlariga tashrif buyurish – o'qituvchilarning kasbiy kompetentligi mezonlarini tarbiyalashda didaktik, rekreasion va tarbiyaviy funksiyalarni bajaradi.

Tarbiyaviy funksiya o'z hududining tarixini va ma'naviyatini o'rganish orqali amalga oshiriladi. Har bir hududdagi insoniyat tomonidan yaratilgan hamda avloddan-avlodga o'tib klayotgan ma'naviy meros yodgorliklari, tarixiy obidalar ushbu hududning ma'naviyati qanchalik darajada yuksak ekanligini ko'rsatadi. Bu esa o'z navbatida shaxsda o'z hududining tarixiy va ma'naviy merosi hamda ajdodlari bilan faxrlanish xissi, vatanparvarlik kabi shaxsiy xislatlarni tarbiyalash bilan bir qatorda, dunyoqarashining kengayishi, o'z hududining tarixi to'g'risida kengroq ma'lumotga ega bo'lish bilan bir qatorda, umummadaniy kompetentlik va emosionallik kabi kasbiy sifatlarni ham tarbiyalaydi.

O'z hududining tarixiy yodgorliklari, obidalariga tashrif buyurishning didaktik funksiyasi – o'qitishni turli metodlaridan foydalangan holda (namoyish etish, hikoya, tashrif buyurish, sayr va boshq.) bilimlarni shakllantirish bo'lib xisoblanadi.

Rekreasiya funksiyasi shaxsning kuchini jismoniy va ma'naviy tiklashda aks etib, ko'pincha rekreasiyaning faol turlari (sayyohat, yurishlar)dan foydalanishni nazarda tutadi. Ma'naviy meros yodgorliklari hamda tarixiy obidalarga tashrif buyurish jarayonlarini o'zida mujassamlashtirgan sayyohat (turizm)dan o'qituvchilar kasbiy kompetentlik mezonlarini tarbiyalashda foydalanish o'zida bilishga oid (ona vataniga, madaniyatiga birlashishi), qadriyatli, faoliyatli, qidiruv-tadqiqotchilik kabi imkoniyatlarni mujassamlashtiradi. Bunday jarayonlar o'qituvchining bilishga oid sohasiga ta'sir ko'rsatib, uning aqliy va irodaviy sifatlarini tarbiyalaydi, atrofning madaniy muhitini emosional darajada qabsl qilish hamda ushbu muhitni saqlab qolishning ijtimoiy tajribasini orttiradi.

Yurtimizning tarixiy obidalar va madaniy yodgorliklariga buyurilgan tashrif va ushbu tarbiyaviy ahamiyatga ega meroslarni o'rganish orqali o'qituvchilarning kasbiy kompetentlik mezonlarini tarbiyalashning bazaviy tarkibiy qismlari quyidagilar xisoblanadi:

Ma'naviy shaxsni tarbiyalash;

Ajdodlarimizning ma'naviy merosini o'rganishga bo'lgan qiziqish va intilish;

Qayta tiklovchi faoliyatga bo'lgan ehtiyoj;

Ma'naviy va madaniy muhitning shaxs faoliyatiga bo'lgan ijobiy ta'siri.

Ma'naviy meros obyektlari ijtimoiy ahamiyatga ega predmetli ma'lumotlarni mujassamlashtirgan obyektlardir. Bunday obyektlar "mavhum" bo'lmay balki real tarixiy xodisalar, insoniyat tarixidan qolgan xodisalarni ko'rsatib beruvchi madaniy dalillardir. Shunga muvofiq ma'naviy meros yodgorliklariga tashrif buyurish o'qituvchilarda umummadaniylik sohasida kompetentlikni tarbiyalash, ma'naviy va madaniy meros obyektlarining umuminsoniy qadriyatlar sifatidagi tasavvurlarini tarbiyalash va bilimlarni shakllantirishda o'z ahamiyatini topadi.

4. *Yurtimizning buyuk allomalari asarlari va tarixiy shaxslari, eng qadimgi qo'lyozmalardan foydalangan holda, ma'anaviy-ma'rifiy tadbirlarni tashkil etish va o'tkazish.* Tarixiy dalillar bilan bog'liq tadbirlarni o'tkazish yurtimizda keng millatli xalqlarning madaniyatini va ma'naviy merosini o'rganish imkonini berish bilan bir qatorda o'qituvchilarda boshqa xalqlarning madaniyatiga bo'lgan hurmat xissini shakllantiradi. Shuningdek, yurtimizda yashab, ijod qilib ketgan buyuk allomalarimiz va ajdodlarimizning hayoti va ijodini hamda asarlarini ma'naviy-ma'rifiy tadbirlarda talqin qilib, o'rganish, ularni sahnalashtirish o'qituvchilarda ajdodlari bilan faxrlanish xissi, vatanparvarlik, yurtiga bo'lgan sadoqat, adolatparvarlik, yuqori emosionallik kabi xislatlarni tarbiyalash bilan bir qatorda, o'qituvchining siyosat, tarix, madaniyat, ma'naviyat, adabiyotshunoslik, va san'at, axloqshunoslik, dinshunoslik, huquqshunoslik, o'lkashunoslik ma'lumotlardan xabardorlik, etnopedagogika va etnopsixologiyaga oid bilimlarga ega bo'lish kabi bir qator kasbiy sifatlar tizimini tarbiyalaydi.

Malaka oshirishdagi o'qituvchilar bilan dars mashg'ulotlari va ulardan tashqari mashg'ulotlarda olib boriladigan faoliyat shakllari: loyihalar, anjumanlar, aylana stollar, ko'rgazmalar, festivallar, fuqarolik forumlari, ishbop (immitasion) o'yinlar, loyihalar, ma'naviy-ma'rifiy, adabiyotshunoslik, san'at, tarix, madaniyat, etnopedagogika va etnopsixologiya sohalarida tashkillashtiriladigan tadbirlar o'qituvchilarda ushbu sohalar bo'yicha bilimlar tizimini tarbiyalab, ularda tashkilotchilik, ijodkorlik, kasbiy-pedagogik fikrlash, nutq texnikasini oshirish, pedagogik mahoratni muntazam orttirib borish kabi bir qator kasbiy – ma'anaviy va axloqiy sifatlarining tarbiyalaydi. O'qituvchilar bilan dars mashg'ulotlarida ta'lim va tarbiya borasida hamda o'qituvchilik kasbining o'zni va ahamiyati to'g'risida turli qadimiy manbalardan foydalanish jumladan, Kur'oni karim va Xadisi sharifda ilm-fan ahlining jamiyatda tutgan o'zni to'g'risidagi qarashlarni, zardushtiylik

dinining muqaddas kitobi xisoblangan “Avesto” da muallimlarni tanlab olish va tayyorlash shakllari borasidagi fikrlar, muallimlarga xos sifatlar to’g’risidagi qarashlarni o’qituvchilar jamoasida muhokama qilish va o’rganish, shuningdek, Uyg’onish davrining yetuk namoyondalari Abu Nasr Forobiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali Ibn Sino, Unsurul Ma’aliy Kaykovus, Abulqosim Umar Az-Zamaxshariy, Shayx Sa’diy Sheroziy, Alisher Navoiy, Abdurahmon Jomiy, Jaloliddin Davoniy, Husayn Voiz al-Koshifiy kabilarning o’qituvchilik kasbi va uning mashaqqati aks ettirilgan ijodiy merosini o’rganish o’qituvchilarning pedagogik tafakkurini shakllantirishda muhim bo’lib xisoblanadi.

Xulosa o’rnida shuni aytish joiz, malaka oshirishdagi o’qituvchilarning kasbiy kompetentlik mezonlarini tarbiyalashda ma’naviy merosdan foydalanishning o’ziga xos ahamiyati va o’rni bor. Ajdodlar merosini o’rganish, yurtimizning eng qadimiy tarixiy joylariga tashrif buyurish, tarixiy yodgorliklarni o’rganish, ajdodlarimizdan avlodlarga o’tib kelayotgan xalqimizning qadimiy urf-odatlarini o’rganish va ularni o’qituvchilar ongida qayta tiklash, vatanimiz hududida hukm surgan dinlardan bugungi kungacha saqlanib qolgan va amal qilinib kelayotgan islom dinida nazarda tutilgan o’qituvchilik kasbi va foliyati to’g’risidagi qarashlarni o’rganish, xadislarda muallimlik kasbi va uning muqaddasligi to’g’risidagi fikrlarni tahlil qilish va o’rganish, yurtimizda yashab, ijod qilgan buyuk ajdodlarimizning asarlarida o’qituvchilik kasbi va uning mas’uliyatli kasb ekanligi to’g’risidagi fikrlarni va qarashlarni turli ma’naviy va ma’rifiy tadbirlar doirasida o’rganish va o’qituvchilarning keng jamoasiga targ’ib qilish - malaka oshirishdagi o’qituvchilarning umummadaniy, shaxsiy, o’z-o’zini rivojlantirish kabi kasbiy kompetentlik mezonlarining tarbiyalanishida muhim bo’lib xisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati:

1. Xayrullayev M., “Uygonish davri va Shark, mutafakkirlar”, Toshkent, O’zbekiston — 1991 yil, 43 — bet.
2. Xoshimov K. va boshqalar, “Pedagogika tarixi” Toshkent, “O’qituvchi” — 1996 yil, 146 — bet.
3. Yusupov E., “Inson odobi”, Toshkent.